

## BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI

*Bobohusenov Akmal*

*Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro vohasining asosan Bronza va ilk temir davriga oid bo'lgan qoyatosh suratlari o'rganilib, tavsiflab chiqilgan. Har bir davrning o'ziga xos xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Ularni shubhasiz vatanimizning boy madaniy me'rosi deyishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Qoyatosh surat, arxeologik yodgorliklar, Sarmishsoy, Nurota, arxeologik yodgorliklar, bronza davri, ilk temir davri, soya-kontur usuli, mehnt qurollari, ov qurollari, Yonboshsoy qoyatosh suratlari, naqshdor-bezakli suratlar

### KIRISH

Buxoro vohasida mavjud qoyatosh suratlarini ilmiy o'rgangan tadqiqotchi olimlarning tarix fani oldida turgan aniq vazifalaridan biri - bu qoyatosh rasmlarining qachon ishlangan davrini aniqlashdan iboratdir. Chunki, bu qoyatosh suratlarining qachon chizilgan davrining aniqlanishi tufayli bu qimmatli arxeologik yodgorliklar, qadimgi ajdodlarimiz o'tmishi tarixini o'rganishda muhim va ishonarli manba bo'lib qolishi mumkin. Lekin, ularning davrini aniqlash tarix va arxeologiya fanining dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Qoyatosh suratlari yodgorlik sifatida kam o'rganilganligi uchun ularni davrlashtirish bo'yicha ilm-fanda yagona uslub ishlab chiqilmagan. Shunday bo'lsa-da, A.N.Okladnikov, D.A.Olderogge, A.A.Formozov, A.N.Bernshtam, V.A.Ranov, L.R.Kizlasov, V.N.Chernesov va boshqa bir qator olimlar qoyatosh suratlarining davriy sanasini aniqlashda bir qancha fikr-mulohazalarni ilgari surganlar<sup>1</sup>.

Sarmishsoy qoyatosh suratlariga qaraydigan bo'lsak, suratlar turli davrlarda turli qabila vakillari tomonidan chizib qoldirilganligiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham, suratlarining mavzusi va mazmuni turlicha. Qolaversa, Sarmishsoy darasi suratlarining xronologiyasini o'rganish ham juda muhim. Bu esa, hozirgi kun fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Sababi, A.P. Okladnikov ta'kidlaganidek, qoyatosh suratlarining davrini aniqlash arxeologik yodgorliklarning davrini aniqlashga nisbatan bir muncha qiyin hisoblanadi<sup>2</sup>. Shuning uchun ham, Sarmishsoy suratlarining xronologiyasi bir muncha bahs-munozaraga boy. Ayrim tadqiqotchilar Sarmishsoy suratlarining chizila boshlangani mil.avv. 7-mingyillikdan boshlangan desa, ayrimlari keyingi davrlar bilan bog'laydi. Sarmishsoy suratlarining

<sup>1</sup> Каби́ров Ж. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. -Тошкент, 1976.-Б.31.

<sup>2</sup> Окладников А.П. Петроглифы Ангарь. -М., 1966.- С.107.

haqiqiy tadqiqotchisi A.Kabirov suratlarning ishlanish texnikasi, mavzusi va mazmuniga qarab, xronologik jihatdan miloddan avvalgi 3-mingyillik va milodiy 1-mingyilliklarni o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi va 3 davrga bo'ladi. Bular:

1. Qadimiy suratlar. Bu davr suratlariga mil.avv. 3-2 mingyilliklarda ishlangan rasmlar kiritilgan.

Qadimiy qatlama mansub bo'lgan rasmlarning sirti quyosh nuri, yog'in-sochin, shamol, xullas, tabiatning xilma-xil hodisalari natijasida toshning tabiiy sirti kabi qorayib nuragan, yemirilgan va darz ketgan. Sarmishsoy qadimiy suratlarida odam, ibtidoiy buqa, sigir, bizon, tog' echkisi, qoplon, leopard, gepard, sher, yo'lbars, qulon, yirik shoxli qoramol va boshqa turdagi hayvonlarning hamda nomi bizgacha ma'lum bo'lmagan narsalarning, ibtidoiy odamlarning ov jarayonlari tasviri ko'plab uchraydi.

Qoyalarda ko'pincha erkak kishilarning tasviri ifoda etilgan. Odamlarning tasvirlari kamdan kam hollardagina alohida-alohida ishlangan. Ba'zi manzaralarda odamlarning sher, yo'lbars yoki qoplon bilan yuzma-yuz kurashayotgani ifoda etilgan bo'lsa, boshqalarida yirik hayvonlarga o'q uzayotgani tasvirlangan. Rasmlar yirik, keng sathli qoyatoshlarning sirtiga chizilgan.

2. Ilk temir davri suratlari. (Mil.avv. 1-mingyillik. Bu guruh suratlarining ko'pchiligi mil.avv. 7 asrlarda yaratilgan).

3. Keyingi davr rasmlari. (milodiy 1-mingyillikda ishlangan rasmlar)<sup>3</sup>. Bu davrga mansub suratlar eng qadimgi va ilk temir davri suratlaridan tubdan farq qiladi. Bu farq ifoda etilgan rasmlarning turida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrga taalluqli rasmlarda tog' echkisi tasviri yuqori planga chiqadi. Bu davr suratlari o'zining saqlanishi, yemirilish darajasi va quyosh nurida kuyish holati bilan oldingilaridan farq qiladi. Agar qadimiy suratlarning sirti to'q jigarrang va qoramtir bo'lsa, keyingi davr suratlari qo'ng'ir va och qo'ng'ir tusda tovlanadi.

Lekin, bu davrlashtirish ham qoyatosh suratlarining aniq xronologiyasini ifodalaydi, deb aytolmaymiz.

Nurota tog' tizmasi hududi yangi qoyatosh san'ati yodgorliklari rasmlari turi, mazmun-mohiyati, ishlanish texnikasi, uslubi, saqlanish darajasi, hajmining katta-kichikligi kabi jihatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu farqlar albatta, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning turli tarixiy davrlarda ishlanganligidan dalolat beradi. Bu rasmlar ustidan ikkinchi rasmning ishlanishi ham ularning boshqa-boshqa davrlarga oidligini ko'rsatadi. **A.N. Xolmatovning** yangi qoyatosh rasmlari ustida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida to'rtta tarixiy davrga ajratiladi<sup>4</sup>.

**Bronza davri qoyatosh rasmlari.** Bu davr rasmlari orasida odam, ibtidoiy buqa, kiyik, qulon, jayron, tog' echkisi, mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqichlar

<sup>3</sup> Кабилов Ж. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар.-Тошкент,1976.-С.31-69.

<sup>4</sup> Холматов А.Н. Нурота тизмаси қоятош расмларининг техник-типологик жиҳатдан ўрганилишига доир (янги қоятош расмлари мисолида) // О'zbekiston arxeologiyasi. № 1 (12). 2016.-Б.73-90.

(qoplon, leopard, gepard), it, bo'ri va boshqa shu kabi hayvon tasvirlari uchraydi. Bundan tashqari qoyalarda geometrik romb shaklidagi belgilar, sodda va murakkab yoy tasvirlari mavjuddir. Bu davrga mansub bo'lgan rasmlarning sirti quyosh nuri, shamol, yog'ingarchilik va xilma-xil tabiat hodisalari natijasida toshning tabiiy sirti kabi qorayib, kuyib uniqib ketgan, nuragan, yemirilib darz ketgan va birmuncha silliqlashgan. J. Kabirov Sarmishsoy qoyatosh rasmlarining tadqiqoti jarayonida rasmlardagi bunday tabiiy o'zgarishlar ularning qadimiyligidan dalolat berishini aytib o'tgan<sup>5</sup>.

Bronza davri tasvirlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri naqshdor-bezakli uslub bo'lib, bu keyingi davrga oid tasvirlar ishlanish uslublarida kuzatilmaydi.

Buxoro vohasi va Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlarining qadimiy qatlami keyingi davrlar tasvirlaridan o'zining mazmun jihatidan juda boyligi bilan ham ajralib turadi. Qoyatoshlarda ibtidoiy davrning iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ba'zi hodisalar, jonli manzaralar ko'plab uchraydi. Bular orasida alohida-alohida tasvirlangan mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqichlar, odamlar hamda ibtidoiy buqa, tog' echkisi, yirtqich hayvonlarning ov qilinish sahnalari ifoda etilgan manzaralar, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ibtidoiy buqa, gepard, leopardlarning rasmlari va ularni ov qilish ifoda etilgan manzara tasvirlari faqatgina Nurota tog' tizmasi qoyatoshlarida emas, balki respublikamizning Bukantog', Suratlisoy, Qozog'istondagi Arpauzen, Qo'ybaqar va yana boshqa qoyatosh yodgorliklarida ham uchraydi<sup>6</sup>. Mutaxassislarning fikricha, mazkur joylardagi qoyatosh rasmlarining aksariyati mil.avv. 4-2 mingyilliklarda ishlangan.

Buxoro vohasi, Nurota tog' tizmasi va yuqorida nomlari zikr etilgan joylardan topilgan ibtidoiy buqa, bizon, gepard, leopard, tog' echkisi va ularni ov qilish sahnalari ifoda etilgan rasmlar chizilish uslublari jihatidan bir-biriga yaqin, ayrimlari esa aynan o'xshashdir. Rasmlar orasidagi bunday o'xshashlik tasodifiy hodisa bo'lmay, ularning bir davrda ishlanganligidan dalolat beradi. Shunday ekan, Nurota tog' tizmasidagi bu hayvon tasvirlari ham mil.avv. 3-2 mingyilliklarda ishlangan bo'lishi mumkin.

Buxoro vohasi va Nurota tog' tizmasi yangi qoyatosh rasmlari yodgorliklarining qadimiy qatlamiga mansub tasvirlarning xronologik sanasini aniqlashda ba'zi arxeologik materiallar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu o'rinda, Markaziy Osiyoning janubi va Yaqin Sharqdagi mil. avv. 3-2 ming yilliklarga oid yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan sopol va marmar toshdan ishlangan

<sup>5</sup> Кабилов Ж. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. -Тошкент, 1976.-Б.30.

<sup>6</sup> Оськин В.А. Петроглифы Букантау // Природа. М., 1976. №10; **Формозов А.А.** Очерки по первобытному искусству // Наскальные изображения и каменные изваяния эпохи камня и бронзы на территории СНГ. -М., 1969.- С. 72.

hayvon haykalchalari va sopol idishlari sirtiga nozik qilib ishlangan rasmlar ham ,ayniqsa, diqqatga sazovor<sup>7</sup>.

Xususan, Janubiy Turkmaniston va Yaqin Sharqning ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan qadimgi qabilalari qoldirgan rangli sopol idishlarning ichki va tashqi devorlari qoplon, bars, gepard, leopard kabi hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Tanasi tangasimon xollar bilan bezatilgan bars, qoplonlarning rasmlari Qoratepa yodgorligining rangli sopol idishlarida ham mavjud<sup>8</sup>.

Buxoro vohasi va Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlari orasida bronza davriga oid romb shaklidagi belgilar ham mavjud. Bu romb shaklidagi belgilarni boshqa rasmlar bilan birgalikda yoki yakka holda chizilganligini kuzatish mumkin. Romb shaklidagi belgilar nafis naqshli, soya-kontur uslublarida urib, cho'kichlab chizilgan. Ularning usti juda qorayib ketgan va lishayniklar bilan qoplangan. Xuddi shunga o'xshash uslubda chizilgan romb shaklidagi tasvirlar bu yerdan uncha uzoq bo'lmagan Yonboshsoy qoyatosh yodgorligi rasmlari orasida ham ko'plab uchraydi. Bu tasvirlar mil. avv. 2-mingyillik va 1-mingyillik boshlariga oid bo'lishi mumkinligi aytib o'tilgan<sup>9</sup>.

**Ilk temir davri qoyatosh rasmlari.** Ilk temir davri suratlari kichik sathli qoyatosh yuzasiga ishlangan. Bu davrga tegishli rasmlarda ko'chmanchilik xarakteridagi rasmlar odam, ot, tuya, echki, bars, qoplon, arxar, jayron, to'ng'iz, murakkab va sodda o'q-yoylar, o'qdon va bosh kiyimlarning suratlari ko'proq uchraydi. Bu rasmlar oldingi davr suratlaridan kichik qilib ishlangan.

Sak-skif davri rasmlari o'zining nafisligi va haqqoniyligi bilan boshqa davr tasvirlaridan ajralib turadi. Bu rasmlar Nurota tog' tizmasi qoyatosh yodgorliklarining qadimgi ya'ni, mil. avv. 3-2 mingyilliklarda ishlangan tasvirlaridan farq qiladi. Avvalo, bu farqlar rasmlarning turi, ishlanish texnikasi, uslubi va qoyalarda ifoda etilgan xilma-xil manzaralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrga mansub bo'lgan tasvirlarning asosini odam, ot, tuya, bug'i, tog' echkisi, arxar, jayron, sayg'oq, to'ng'iz, bo'ri, tulki, it singari hayvonlar tashkil etadi. Undan tashqari, qopqon, murakkab va sodda o'q-yoylar, o'qdon va boshqa bir qancha tushunarsiz belgi tasvirlari uchraydi.

Sak-skif davri rasmlari qadimgi davrga oid tasvirlarga nisbatan kichik ko'rinishda ishlangan. Qadimgi tasvirlarda naqshdor-bezakli, soya va kontur uslublari ko'pchilikni tashkil qilsa, sak-skif davri rasmlari ishlanishida esa, soya tarzidagi uslub ustunlik qiladi.

<sup>7</sup> Кабилов Дж. К датировке петроглифов Узбекистана 3-2 тыс.л. до н.э. // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1972 года СССР. -Ташкент, 1973.

<sup>8</sup> Сариниди В.И. Энеолитическое население Геоксюр // ТЮТАКЭ. -Ашхабад, 1961. -Табл. 9.

<sup>9</sup> Кондрикова М., Хужаназаров М. Наскальные изображения Янбашая // Узбекистон қадимда ва ўрта асрларда. - Самарканд, 1992. -С. 22-26.

Sak-skiif davri rasmlarining ishlangan vaqtini aniqlash bilan birga ularning ishlanish texnikasini o'rganish ham ko'plab ma'lumotlarni berishi mumkin. Kuzatish va amaliy tajriba ishlari shuni ko'rsatadiki, bu davr rasmlari qandaydir qattiq qurol yordamida urib-cho'kichlash, kesish, tirnash texnikalari vositasida ishlangan. Tosh sirtida qoldirilgan asbob izlari nuqtasimon, cho'zinchoq, uchburchak va noaniq shaklda bo'lib, diametri, eni, uzunligi hamda chuqurligi 0,5-1,5 millimetrdan oshmaydi. Bunday ko'rinishdagi izlar rasmlarning aksariyati temir va po'lat asboblar yordamida ishlanganligidan dalolat beradi. Chunki, rasmlar va ularning mayda qismlari ham o'ta noziklik bilan ishlangan. Binobarin, bunday rasmlarni, asosan jez, temir va po'latdan yasalgan asboblar yordami bilan ishlash mumkin.

**Xulossa:** Xulosa qilib aytganda Buxoro vohasi va Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlari qadimgi ajdodlarimizning tarixi, kundalik turmush tarzi, diniy, madaniy va ma'naviy hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. Bu tarixiy-madaniy yodgorlikni hozirgi holatidagidek qilib saqlashni ta'minlash, ularni har tomonlama o'rganish va kelajak avlodga yetkazish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Bugungi kunda ham tadqiqotchi olimlar tomonidan Buxoro vohasi va Nurota tog' tizmasi qoyatosh suratlari ustida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari davom etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сарианиди В.И. Энеолитическое население Геоксюр // ТЮТАКЭ. -Ашхабад, 1961. -Табл. 9.
2. Кондрикова М., Хужаназаров М. Наскальные изображения Янбапсая // Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда. -Самарқанд, 1992. -С. 22-26.
3. Оськин В.А. Петроглифы Букантау // Природа. М., 1976. №10;
4. Формозов А.А. Очерки по первобытному искусству // Наскальные изображения и каменные изваяния эпохи камня и бронзы на территории СНГ.
5. Кабиров Ж. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар.-Тошкент,1976.
6. Окладников А.П. Петроглифы Ангарь. –М.,1966.
7. Xolmatov A.N. Noqisoy yangi qoyatosh rasmlari // O'zbekiston arxeologiyasi. №1. Samarqand, 2010.
8. Бартольд В.В. Отчет о поездке в Среднюю Азию с научной целью 1893-1894 гг. Императорской Академии наук. Т.1. Вып.4.-СПб.,1897.
9. Кабиров Дж. Древние наскальные изображения Каратау, 1971.